

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**BUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG'ARMALARI
FAKULTETI**

“G'AZNACHILIK ISHI” KAFEDRASI

USMONOV SUNNATILLO BAXODIROVICH

**«IQTISODIYOTNI MODERNIZASİYALASH
SHAROITIDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI
SAMARALI IJROSINI TA'MINLASH»**

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«G'aznachilik ishi»

kafedra mudiri

_____ f.prof. Z.X.Karimova

« ____ » _____ 2013

Bitiruvchi : 5341700 -“G'aznachilik ishi”- ta'lim yunalishi
4 -kurs talabasi
Usmonov Sunnatillo Bahodirovich

Ilmiy rahbar:

k.o'q. Hamdamov Shavkat Komilovich

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA

Betlar

KIRISH	4-6
1-BOB. DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA BUDJETDAN MABLAG' AJRATISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI	7-20
1.1. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishda davlat budjetining ahamiyati	7-11
1.2. Davlat budjeti xarajatlarining asosiy yo'nalishlari va ularning tashkiliy –huquqiy asoslari	11-20
2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI IJROSI VA BUDJET TASHKILOTLARI XARAJATLARINI TO'LASHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	21-50
2.1. Davlat budjeti xarajatlari ijrosining hozirgi holati tahlili	21-33
2.2. Davlat budjetidan mablag' oluvchi budjet tashkilotlarini xarajatlarini to'lashning amaldagi tartibi va uning tahlili	33-50
3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINI SAMARALI IJROSINI TA'MINLASH MASALALARI	51-58
3.1. Davlat budjeti xarajatlarining g'azna ijrosini takomillashtirish masalalari	51-56
3.2. Davlat budjeti xarajatlarini samarali ijrosini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari	56-58
XULOSA	59-60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	61-65

KIRISH

Bitiruv-malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Budjetda markazlashtirilayotgan mablag'lar davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, ular davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tegishli funktsiyalar va vazifalarning bajarilishi ta'minlaydi. Budjetning maqsadi resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida ijtimoiy yo'naltirilgan jamiyatni barpo etishdir. Budjetning barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohasi holatini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Bizning mamlakatimizda zamonaviy budjetni barpo etish mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq boshlangan edi. Bu narsa mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan juda keskin o'zgarishlarni amalga oshirish sharoitida sodir bo'lib, ular o'z navbatida, budjetning oldida turgan birinchi darajali vazifalarni ham aniqlab berdi.

“Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishga yo'naltirildi”-deydi prezidentimiz I.A. Karimov o'z ma'ruzalarida¹. Darhaqiqat davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy sohalarni mablag' bilan ta'minlashga yo'naltirilgan ekan, avvalo ushbu mablag'lardan foydalanish va davlat budjeti xarajatlari samarali ijrosini ta'minlash dolzarb masaladir.

Istiqlolimizning tarixiy nuqtai-nazardan qisqa yillarida budjet masalalarida juda katta yutuqlarga erishilganiga qaramasdan, hamon bu erda muammolar mavjud. Budjet daromadlarining qiyinchiliklar evaziga shakllantirilayotganligi, hamma vaqt ham budjet mablag'laridan oqilona foydalanilmayotganligi, budjet defitsiti darajasini belgilangan me'yorlar darajasida ushlab turishning zarurligi ana shunday muammolar qatoriga kiradi.

¹ I.A. Karimov “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 18.01.2013 yil

Mamlakatning budget tizimi va budgetdan moliyalashtirishni ham takomillashtirishga muhtoj. Aynan shuning uchun ham biz tomondan tanlangan ushbu bitiruv-malakaviy ishi mavzusi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining maqsadi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti xarajatlarini amalga oshirishdagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv-malakaviy ishining oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishda davlat budgetining ahamiyatini o'rganish;
- Davlat budgeti xarajatlarining asosiy yo'nalishlari va ularning tashkiliy – huquqiy asoslarini o'rganish;
- Davlat budgeti xarajatlarining hozirgi holatini tahlil qilish;
- Davlat budgetidan mablag' oluvchi budget tashkilotlarini xarajatlarini to'lashning amaldagi tartibini tahlil etish;
- Davlat budgeti xarajatlarining g'azna ijrosini takomillashtirish masalalarini tadqiq etish;
- Natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish tizimini qo'llash orqali davlat budgeti xarajatlari samarali ijrosini ta'minlashni tadqiq etish;
- mavzuga oid bo'lgan umumiy xulosa va takliflar tizimini ishlab chiqish.

Bitiruv-malakaviy ishining ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi davlat budgetining xarajatlari tizimi bitiruv-malakaviy ishining ob'ekti hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining predmeti. Davlat budgetining moliyaviy resurslarini sarf etish jarayonida yuzaga chiqadigan moliyaviy munosabatlar bitiruv-malakaviy ishining predmeti bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishi mavzusining nazariy va amaliy ahamiyati. Davlat budgeti xarajatlari ijrosini samarali ta'minlashga qaratilgan amaliy

tavsiyalardan maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Bitiruv-malakaviy ishining tarkibi va tuzilishi. Bitiruv-malakaviy ishi kirish, o'z ichiga oltita paragrafni qamrab olgan uch bob, xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv-malakaviy ishining kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi va vazifalari, ishning ob'ekti, predmeti, nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining birinchi bobida davlat budjeti xarajatlarining asosiy yo'nalishlari va budjetdan mablag' ajratishning tashkiliy-huquqiy asoslari o'rganilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida davlat budjeti xarajatlarining budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi va uning ijrosining hozirgi holati tahlil etilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining uchinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat budjeti xarajatlarini samarali ijrosini ta'minlash masalalari tadqiq etilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining xulosa qismida mavzu doirasida shakllangan asosiy xulosalar va takliflar tizimi keltirilgan.

1-BOB. DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA BUDJETDAN MABLAG' AJRATISHNING TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishda davlat budjetining ahamiyati

Har bir mamlakatning normal ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun samarali faliyat qiluvchi davlat zarur. Davlat jamiyatga va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning samarali faoliyat qilishi uchun me'yoriy va institutsional tuzilmalarning qonuniy asoslarini yaratish va shu bilan o'z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib berish vazifalarini bajaradi. Shu vazifalardan kelib chiqqan holda. davlatning asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat:

1. Bozor xo'jaligining institutsional asoslarini shakllantiruvchi qonuniy xujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish, amalga oshirish va takomillashtirish;

2. Makroiqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni samarali boshqarish va tartibga solish;

3. Asosiy ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

4. Milliy manfaatlarni himoya qilgan holda, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish va tartibga solish;

5. Davlat boshqaruvini, mamlakat mudofaasi va milliy havfsizligini ta'minlash;

6. Tabiat muhofazasi va ekologik muvozanatni ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish va shu kabilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakat iqtisodiy salohiyatining oshib borishi bilan davlatning kuch-qudrati, uning o'z funktsiyalarini kengaytirib borish imkoniyati ortib boradi. Davlat o'z funktsiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, shuningdek, rivojlanishning har bir bosqichida dolzarb bo'lgan

strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i ob'ektiv zaruriyatdir. Aynan shu ob'ektiv zaruriyatning mavjud bo'lishi davlat budjetining mavjud bo'lishini va amal qilishini taqozo etadi.

Davlat budjeti orqali jamiyatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qayta taqsimlanadi. Yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishi jamiyatdagi umumiy ehtiyojlar: maorif, sog'liqni saqlash, mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, aholi tarkibidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mamlakat osoyishtaligi, chegaralar dahlsizligini ta'minlash va favqulodda holatlar uchun saqlanadigan davlat zahiralarning mavjud bo'lish zarurati tufayli kelib chiqadi. Shuningdek, davlat budjeti orqali davlat jamiyatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir qilishning moliyaviy dastaklariga ega bo'ladi.

Mamlakat moliyaviy resurslarining davlat ihtiyorida markazlashish darajasini aks ettiruvchi davlat budjetining hajmi qator omillarga bog'liq:

- iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasiga;
- davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasiga;
- korxonalar, tashkilot va muassasalardagi xo'jalik yuritish usullariga;
- jamiyat tomonidan xalq etilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarning xarakteriga,
- iqtisodiyotda va ijtimoiy soha tarmoqlarda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning ko'lamiga va boshqalar.

Davlat budjetida to'planayotgan mablag'lar davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, ular davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tegishli funktsiyalar va vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Davlat budjetining maqsadi resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida ijtimoiy yo'naltirilgan jamiyatni barpo etishdir.

Davlat budjetining barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohasi holatini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Davlat budjeti milliy iqtisodiyot korxonalarini texnikaviy jihatdan qayta qurollantirishda alohida ahamiyatga ega. Budjetdan iqtisodiyotga qilinayotgan xarajatlar va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish, eng avvalo, ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy soha (maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot) xarajatlarini moliyalashtirish, oilalarga ijtimoiy nafaqa berish, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar bahosidagi farqlarni budjetdan qoplash, davlat hokimiyati organlari, boshqaruv va sud organlarini saqlash, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini moliyalashtirish, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash kabi vazifalarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashda Davlat budjetining ahamiyati juda beqiyosdir.

Sub'ektlarning faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda Davlat budjetining tartibga soluvchi o'rni quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- moliyaviy resurslarga bo'lgan yangi talabni kelgusi budjet yilida budjetning xarajatlari tarkibiga kiritish;

- moliyaviy resurslarga bo'lgan qo'shimcha ehtiyojni mavjud bo'lgan budjet resurslarini manyovr qilish, ya'ni budjet kreditlarini bir ob'ektdan ikkinchisiga o'tkazish. Bunday imkoniyatning mavjud ekanligi amaliyotda ayrim sub'ektlarning o'zlariga taqdim etilgan moliyaviy resurslarni to'liq o'zlashtirishning uddasidan chiqa olmasligi bilan belgilanadi;

- qo'shimcha ehtiyojni hukumatning zaxira fondlari hisobidan qoplash va boshqalar.

O'zining mohiyatiga ko'ra, Davlat budjeti mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismidan iborat bo'lib, shunga mos ravishda u moliya tizimiga tegishli bo'lgan barcha xususiyatlarga ega va unga tegishli bo'lgan barcha funktsiyalarni bajaradi. Bir vaqtning o'zida, Davlat budjeti faqat o'ziga xos bo'lgan xarakterli xususiyatlarga ham egadirki, ular o'z navbatida, davlat budjetini moliya tizimining boshqa bo'linmalaridan ajratib turadi va unda markaziy o'rinni

egallashga imkon beradi. Uning ana shunday xususiyatlaridan biri bevosita davlatga tegishli ekanligidir. Haqiqatdan ham har bir mamlakatda hukumat barcha moliyaviy munosabatlarning tashkilotchisi bo'lsada, uning bu xislati, ya'ni mamlakatning moddiy va moliyaviy resurslarini asosiy taqsimlovchisi sifatidagi o'rni faqat budjetda katta kuch bilan namoyon bo'ladi.


Yagonalik va markazlashuvning yuqori darajada ekanligi Davlat budjetining muhim xususiyatlaridandir. Turli ma'muriy-hududiy budjetlarning ko'pligiga qaramasdan ularning barchasi quyi bo'g'inlarning yuqori bo'linmalarga bo'ysunishiga ketma-ket rioya qilgan holda yagona Davlat budjetiga birlashadi. Bir vaqtning o'zida budjet resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanishda oshkoralik ham ta'minlanadi. Chunki davlat hokimiyatining barcha organlari o'zlarining budjet mablag'lariga ega bo'lib, bu borada ular o'zlariga tegishli bo'lgan budjet huquqlaridan foydalanadilar. Davlat budjetiga xos bo'lgan ana shu oxirgi ikki xarakterli belgilar mablag'lar bilan manyovr qilish va nozik budjet siyosatini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Yalpi ichki (milliy) mahsulotni Davlat budjeti orqali taqsimlash, bir vaqtning o'zida, o'zaro bog'langan va ma'lum darajada nisbatan mustaqil ham bo'lgan uch bosqichga egadir:

- 1) umumdavlat pul fondini shakllantirish (budjet daromadlari);
- 2) hududiy va ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan ko'p sonli budjet fondlarini yaratish;
- 3) budjet fondidan foydalanish (budjet xarajatlari).

Umuman olganda davlat budjetining ahamiyatini biz quyida keltirilgan 1.1-rasmda kurishimiz mumkin .

Davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida davlat hokimiyatini iqtisodiy imkoniyatlarining moliyaviy asoslarini yaratadi.



1.1-rasm. Davlat budjetining ahamiyati²

Yuqoridagi olimlarning davlat budjetiga bergan ta'riflarini o'rganish, solishtirish va tahlil qilish natijasida biz bu kategoriyaga quyidagicha ta'rif berishni ma'qul, deb topdik: “Davlat budjeti – bu tegishli darajadagi (markaziy yoki mahalliy) davlat boshqaruv organi tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan moliyaviy reja bo'lib, unda davlatning o'z funksiyalaridan kelib chiqib amalga oshiradigan asosiy xarajatlari hamda ularni moliyalashtirish uchun zarur daromadlar o'z aksini topadi”

1.2. Davlat budjeti xarajatlarining asosiy yo'nalishlari va ularning tashkiliy –huquqiy asoslari

Budjetdan mablag' ajratishning oqilona tizimini tashkil etishda, eng avvalo, moliyalashtirish printsiplari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi amaliyotda foydalanilayotgan budjetdan mablag' ajratishning printsiplarini umumiy va xususiy guruhlariga bo'lish mumkin. Umumiy printsiplar budjetdan mablag' oladigan barcha sub'ektlarning faoliyatiga tegishlidir. Xususiy printsiplar esa

² T.S. Malikov, N.H. Haydarov “Davlat byudjeti” T. 2007 y. 28 b.

sub'ektlar faoliyatining tashkil etilishiga bog'liq ravishda budget mablag'larining taqdim etilish tartibini belgilab beradi.

Budgetdan moliyalashtirishning umumiy printsiplari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- minimum xarajatlarda maksimum samarani olish. Budget mablag'laridan foydalanishning eng yuqori natijaliligi ta'minlangan sharoitdagina taqdim qilinishi kerak. Bunday samara, bir tomondan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli vazifalarini echish, ikkinchi tomondan esa, budget mablag'lari oluvchilar daromadlarining o'sishi hisobidan pul mablag'larining budgetga qayta oqib kelishi bilan ifodalanishi mumkin;
- budget mablag'laridan foydalanishning maqsadli xarakterdaligi. Yuridik shaxslar budgetdan mablag'larni oldindan maqsadlari aniqlangan va tasdiqlangan budget asosida olishi mumkin. Bu printsipga qat'iy rioya qilish budget mablag'laridan samarasiz foydalanishga to'sqinlik qiladi;
- ko'zda tutilgan rejalarning bajarilishi va oldin berilgan mablag'larning foydalanilganligini inobatga olgan holda budget mablag'larini taqdim etish. Budgetdan moliyalashtirishning ko'rsatkichlar bajarilishiga bog'liqligi moliyaviy organlarga korxonalar, tashkilot va muassasalarning faoliyati ustidan samarali va ta'sirchan nazoratni amalga oshirishga imkon beradi;
- budget mablag'larining qaytariluvchan emasligi. Budget mablag'lari sub'ektlarga ularni majburiy ravishda budgetga qaytarmaslik sharti bilan taqdim etiladi;
- budget mablag'larining tekinligi. Budgetdan mablag'lar sub'ektlarga foiz ko'rinishida qandaydir daromadlarni davlatga to'lamasdan yoki mablag'larni to'lashning boshqa ko'rinishlarisiz ajratiladi.

Umumiy printsiplar bilan birgalikda budgetdan moliyalashtirish amaliyotida xususiy printsiplardan ham foydalaniladi. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- faqat ishlab chiqarishni kengaytirish xarajatlariga budget mablag'larini ajratish;

- budjet mablag'larining o'lchamini aniqlashda "qoldiq" yondoshuvidan foydalanish;
- budjetdan moliyalashtirishni rejalashtirilayotgan xarajatlarni kredit metodi orqali ta'minlash bilan birgalikda foydalanish;
- korxonalarining moliyaviy holatini budjetli tartibga solish printsipli va boshqalar.

Pul mablag'larini taqdim etishning yuqorida keltirilgan usullari budjetdan moliyalashtirishning quyidagi shakllari yordamida amalga oshiriladi:

- budjet tashkilotini saqlash uchun mablag'lar;
- davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining shartnomalari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni to'lash uchun mablag'lar;
- aholiga transfertlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarga ajratiladigan mablag'lar;
- quyi budjetlarga va davlat maqsadli fondlariga dotatsiya, subventsiya va ssudalar;
- harakatdagi yoki yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxslar ustav kapitaliga investitsiyalar;
- baholardagi farqni qoplash.


Amaliyotda budjetdan moliyalashtirish, yuridik nuqtai-nazardan, quyidagi ikki ko'rinishda amalga oshiriladi:

- 1) xarajatlarni respublika budjetidan moliyalashtirish;
- 2) xarajatlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan moliyalashtirish.

Quyida keltirilgan 1.2-rasmda biz davlat budjeti xarajatlarini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini keltirib o'tamiz.

Davlat budjeti xarajatlari – davlat va mahalliy hokimiyat vazifa va faoliyatini moliyaviy ta'minlashga yo'naltiriladigan pul mablag'laridir. Budjet mablag'lariga egalik qiluvchilar – budjet mablag'larini oluvchilar yoki

boshqaruvchilar bo'lgan, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi tashkilotlar budjet xarajatlari orqali moliyalashtiriladi. Shunday qilib, budjet xarajatlari tranzit xarakterga ega. Budjetda faqat budjet xarajatlarining miqdori xarajatlar moddalari bo'yicha belgilanadi, bevosita xarajatlarni esa budjet oluvchilar amalga oshiradilar. Bundan tashqari dotatsiyalar, subvensiyalar, subsidiyalar va budjet ssudalari vositasida budjet tizimi darajalari bo'yicha budjet mablag'larini qayta taqsimlash budjet orqali amalga oshadi.



1.2-rasm. Davlat budjeti xarajatlarini amalga oshirishning qonuniy-huquqiy asoslari³

³ O'zbekiston Respublikasining Muallif tomonidan mustaqil tuzildi

Budjet xarajatlari asosan qaytarib olinmaydigan xarakterga ega. Faqat budjet kreditlari va budjet ssudalari qaytariladigan asosda berilishi mumkin. Xarajatlar tuzilmasi yil uchun tasdiqlanadigan budjetda bevosita ko'rsatiladi va budjet daromadlari kabi iqtisodiy vaziyatga, ijtimoiy ustuvorliklarga bog'liq bo'ladi.

Davlat budjeti xarajatlari tasdiklangan budjetdan mablag' ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- budjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;
- joriy budjet transfertlari shaklida;
- kapital xarajatlar shaklida;
- asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;
- chet elda davlat ehtiyojlari uchun er va boshqa mol-mulk olishga;
- davlat ehtiyojlari uchun erga bo'lgan xuquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;
- davlat zaxiralarini vujudga keltirishga;
- kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan budjet transfertlari shaklida;
- rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan budjet ssudalari shaklida;
- davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari shaklida;
- davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.


O'zbekiston Respublikasi "Budjet tizimi to'g'risida"gi qonunining 22-moddasiga ko'ra respublika budjetidan xarajatlarni moliyalashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- fan, ta'lim, madaniyat, soqliqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (respublikaga bo'ysunadigan tashkilotlar bo'yicha);
- ijtimoiy ta'minot;
- mudofaa, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash;
- sudlar va prokuratura organlari faoliyatini ta'minlash;
- davlat zahirasi va safarbarlik zahirasini vujudga keltirish hamda ularni saqlash;
- davlat markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish;
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi diplomatik vakolatxonalari hamda missiyalari faoliyatini ta'minlash;
- iqtisodiyot turli tarmoqlarining respublikaga bo'ysunadigan budjet tashkilotlarini saqlash;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;
- er tuzish, meliorativ, tabiatni muhofaza qilish va epizootiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash;
- gidrometeorologiya, do'lga qarshi kurash chora-tadbirlari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

O'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo'ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi (yuqoridagi qonunning 23-moddasi) (1.3-rasm):

- fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari bo'yicha);
- ijtimoiy ta'minot;
- aholini ijtimoiy himoya qilish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash;
- iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budget tashkilotlarini saqlash;



1.3- rasm. Mahalliy budjetlarning xarajatlari tizimi⁴

- qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Budjetdan mablag'larni taqdim etishning metodlari budjetdan moliyalashtirishning muhim elementi bo'lib hisoblanadi. Ularning yordamida

⁴ "O'zbekiston Respublikasi Byudjet tizimi to'g'risida" gi Qonuniga asosan muallif tomonidan tuzildi

moliya organlari budjetda ko'zda tutilgan tadbirlarni pul mablag'lari bilan ta'minlaydi, pul mablag'laridan foydalanishda yuqoriroq natijalarga erishish uchun mablag'larni qayta o'zgartirib taqdim etishni amalga oshiradi, moliyaviy resurslarni taqsimlashda tarkib topayotgan proportsiyalarni tartibga soladi.

Davlat tomonidan moddiy ishlab chiqarish sohasi va uy-joy-kommunal xo'jaligiga qilinadigan xarajatlar mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirish xarajatlariga kiradi. Bunda budjet mablag'lari vazirliklar, idoralar va korxonalar uchun ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha xarajatlarga (kapital quyilmalarga), oddiy takror ishlab chiqarishni ta'minlashga, operatsion xarajatlarga va boshqa xarajatlarga beriladi.

Mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirish xarajatlari vazirliklar, idoralar va korxonalar bo'yicha rejalashtiriladi hamda bir vaqtning o'zida ma'lum maqsadlarga mo'ljallanganligi bo'yicha ko'zda tutiladi. Bunda budjet mablag'larining asosiy qismi iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga, ya'ni sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va transportga yo'naltiriladi.

Budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish nuqtai-nazaridan kapital quyilmalarni moliyalashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishda eng muhim ahamiyatga egadir. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadlariga mo'ljallangan asosiy fondlarning yangilarini yaratish va harakatdagilarini kengaytirishga uchun pul mablag'larini taqdim etishga kapital quyilmalarni moliyalashtirish deyiladi. Budjet resurslarining cheklanganligi uchun ular investitsiyalarning cheklangan doirasiga, ya'ni maqsadli dasturlarga kiritilgan yoki hokimiyatning ijroiya organlari qarori bo'yicha amalga oshirilayotgan investitsiyalarga beriladi.

Iqtisodiyot xarajatlarini moliyalashtirishning muhim yo'nalishi yuridik shaxslarga turli subsidiyalar, dotatsiyalar va subvensiyalar berishdir. Bu ko'rinishdagi budjet mablag'lari davlat, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari va xususiy korxonalar(i)ning turli joriy xarajatlari va zararlarini qoplash uchun ajratiladi. Ana shunday xarajatlarning asosiy qismi yoqilg'i-energetika sanoati,

agro-sanoat kompleksi, uy-joy-kommunal xo'jaligi, shahar transporti va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga yo'naltiriladi.

Budjetning ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlari davlat tomonidan ijtimoiy funktsiyaning bajarilishi bilan bog'liq.

Ijtimoiy ehtiyojlar xarajatlari smetali rejalashtirish printsiplari asosida aniqlanadi. Bu xarajatlar konkret tadbirlar va xarajatlarning turlari bo'yicha moliyalashtiriladi. Xarajatlar hajmi bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan sotsial soha tashkilotlarida ishlab chiqiladigan smeta va moliya organlarida tuzilgan assignovaniyalar hisob-kitobi asosida aniqlanadi. Hisob-kitoblar asosida xizmat ko'rsatiladigan kontingentlarni xarakterlovchi tashkilotlar faoliyatining ko'rsatkichlari (masalan, o'quvchilar, guruhlar, sinflar soni va h.k.) yotadi. Bunda ularning yil davomida faoliyat ko'rsatish vaqti ham hisobga olinadi. Bu ko'rsatkichlar hisob-kitob birliklari bo'lib xizmat qiladi. Hisob-kitob birligiga to'g'ri keluvchi pulli xarajat budjet tashkilotining faoliyat ko'rsatishini va rivojlanishini ta'minlaydigan norma bo'yicha o'rnatiladi.

Budjet mablag'larini sarf qilishning asosiy printsiplari ularning mo'ljallanganligi va vaqt bo'yicha qattiq tartibga solinganligidir. Tashkilot smetada ko'zda tutilmagan maqsadlarga pul mablag'laridan foydalanish huquqiga ega emas. Budjet tashkiloti smetasining xarajatlari ularning yopiq ro'yxatini o'z ichiga olib, tarkibiga quyidagilar kiradi:

- xodimlarning mehnat haqini to'lash;
- davlat budjetdan tashqari fondlariga badallar;
- aholiga transfertlar (qonunga muvofiq ravishda belgilangan pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar);
- safar xarajatlari va xodimlarga berilgan boshqa kompensatsion to'lovlar;
- sotib olinishi kerak bo'lgan tovarlar, bajarilishi lozim bo'lgan ishlar va ko'rsatilajak xizmatlarni to'lash.

Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar konkret ehtiyojni qondirish o'lchovi sifatida pul mablag'larining ma'lum summasi sifatida ifodalangan xarajatlar

normasi asosida amalga oshiriladi. Amaliyotda pulli normalarning turli-tuman turlaridan foydalaniladi:

- moddiy boyliklardan foydalanishning natural ko'rsatkichlariga asoslangan normalar (ovqatlanish, tibbiy texnikalar va dori-darmon sotib olish, yumshoq inventarlar va hokazolar xarajatlari normasi). Bunday normalar moddiy normalarning puldagi ifodasini namoyon etadi;
- umumlashtirilgan yakka tartibdagi to'lovlar – ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, safar xarajatlari va boshqalar;
- o'tgan davrlarda mablag'larning sarflanish ko'rsatkichlarini umumlashtirish asosida tajriba-statistika usuli yordamida va budjetning imkoniyatlarini hisobga olgan holda vujudga keltirilgan normalar.

O'zining murakkablik darajasiga qarab budjet normalari ikkiga bo'linadi:

1) oddiy normalar (xarajatlarning oddiy yoki konkret turiga tegishli bo'lgan normalar);

2) kombinatsiyalashtirilgan yoki yiriklashtirilgan normalar (bir necha xarajatlar turlarini qamrab oladigan, alohida bir xarajatlar moddasini va o'xshash xarajatlar moddalarini shakllantiradigan yoki muassasaning barcha xarajatlarini qamrab oladigan normalar).

Hozirgi sharoitda sotsial soha tashkilotlarining barcha turdagi xarajatlarini qamrab oladigan yiriklashtirilgan normalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday normalardan foydalanish muassasalar ishini yuqori yakuniy natijalarga erishishga yo'naltiradi: bolalarni o'qitish, mutaxassislarni tayyorlash, bemorlarga yordam ko'rsatish va h.k. Bundan tashqari, yiriklashtirilgan normalarning qo'llanilishi turli xarajatlar yo'nalishida budjet mablag'laridan foydalanish bo'yicha tashkilotlarning mustaqilligini kengaytiradi va resurslardan oqilona va tejimli foydalanishda ularning manfaatdorligini kuchaytiradi.

Budjet normalari juda ko'p omillar ta'siri ostida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, baho va tariflar tizimining o'zgarishi, milliy xo'jalikda ish haqining o'sishi, mahalliy budjetlarda xarajatlarni moliyalashtirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarning paydo bo'lishiga qarab budjet normalari o'zgaradi.

2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI IJROSI VA BUDJET TASHKILOTLARI XARAJATLARINI TO'LASHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI .

2.1. Davlat budjeti xarajatlari ijrosining hozirgi holati tahlili

Davlat budjetining mamlakat ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini ham alohida ta'kidlash lozim, bu boradagi budjet siyosati ijtimoiy ahvolni barqarorlashtirish uchun kuchli muvozanatlashtirilgan ijtimoiy siyosatni olib borish, aholining turmush darajasini muttasil oshirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadli yo'nalishlaridan biri – aholining yuksak turmush darajasini ta'minlashdan iborat. Aholining turmush darajasi uning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlari tizimi o'z ichiga quyidagi guruhlarini oladi: tug'ilish va o'lish darajasi hamda boshqa demografik ko'rsatkichlar; hayot kechirishning sanitariya-jihatidan sharoitlari; oziq-ovqat tovarlarini iste'mol qilish darajasi; turar joy sharoitlari; ma'lumot va madaniyat; mehnat qilish va bandlik sharoitlari; aholining daromadlari va xarajatlari; hayot kechirish qiymati va iste'mol narxlari; transport vositalari; dam olishni tashkil etish; ijtimoiy ta'minot.

Har yili budjetning salmoqli qismi ijtimoiy madaniy tadbirlarni moliyalashtirishga va aholini ijtimoiy himoya qilishga safarbar etiladi. Bu mablag'lar davlatga:

- xalq ta'limi sohalarini rivojlantirish;
- fan va madaniyatni rivojlantirish;

2.1-jadval

Davlat budjeti xarajatlarning mamlakat YaIM da tutgan o'ri⁵

Ko'rsatkichlar	2010 yil			2011 yil			2012 yil		
	Mln. so'm	Davlat budjeti xarajatlariga nisbatan	YaIM ga nisbatan	Mln. so'm	Davlat budjeti xarajatlariga nisbatan	YaIM ga nisbatan	Mln. so'm	Davlat budjeti xarajatlariga nisbatan	YaIM ga nisbatan
Yalpi ichki mahsulot	61465,1	x	100,0	81253,6	x	100,0	95760,0	x	100,0
Jamlanma budjet xarajatlari	19836,0	100,0	32,3	26269,3	100,0	32,2	33778,3	100,0	35,3
Davlat budjeti xarajatlari	13732,5	69,2	22,3	16991,1	64,7	20,9	21571,7	63,9	22,5


⁵ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

- aholining tibbiyot xizmatlariga bo'lgan minimal ehtiyojlarini qondirish;
- aholini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish;
- ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish imkonini beradi.

Quyida keltirilgan 2.1-jadvalda davlat budjeti xarajatlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotida tutgan o'rnini keltirilgan. Unga ko'ra bugungi kunda davlat budjeti xarajatlariga YaIM ning o'rtacha olganda 22,0% to'g'ri kelmoqda. Jamlanma budjet xarajatlariga nisbatan esa 32-35% to'g'ri kelmoqda.

Davlat budjeti xarajatlari o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra joiy va kapital xarajatlariga bo'linadi (2.1-rasm).

Budjet harajatlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlanishi



2.1-rasm. Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra turkumlanishi⁶

Davlat budjetining xarajatlari o'zining funktsional guruhlanishiga ko'ra va davlat budjeti parametrlari doirasida ijrosi quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

- Ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish xarajatlari
- Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari
- Iqtisodiyot xarajatlari

⁶ Ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

- Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari.
- Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari
- Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini saqlash xarajatlari
- Sud, prokuratura, huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarni saqlash xarajatlari.
- Vazirlar Mahkamasining zaxira fondini shakllantirish
- Davlat maqsadli jamg'armalariga dotatsiyalar.
- Boshqa xarajatlar.

2.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ya'ni davlat budjeti xarajatlari tizimida davlat budjetining ijtimoiy sohalar uchun qiladigan xarajatlari tizimi eng yuqori ulushga ega bo'lib, ular 2008 yilda jami davlat budjeti xarajatlarining 53,7% ni, 2009 yilda 56,6% ni, 2010 yilda 59,1 % ni ,2011 yilda 59,5% ni , 2012 yilda 58,0 % ni tashkil etgan .O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining boshqa davlatlarga nisbatan alohida xususiyati uning ijtimoiy yo'naltirilganligidadir. Jadval ma'lumotlarida ham buni ko'rishimiz mumkinki, ya'ni oxirgi yillarda davlat budjetidan ijtimoiy sohalarni rivojlanishi va aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan mablag'lar sarfi xajmi o'sib borayapti. Budjetning bu turkum xarajatlari nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy ahamiyatga ega. Ular mamlakat fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan ijtimoiy xuquqlarini amalga oshirishning moliyaviy bazasi bo'lib xizmat qiladi va o'z navbatida, ijtimoiy ishlab chiqarishga bilvosita ta'sir ko'rsatib, mehnat resurslarining sifat tarkibini yaxshilash, fan yutuqlaridan foydalanish asosida mehnat unumdorligini oshirish uchun shart-sharoit yaratish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish vazifalarini bajaradi.

2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining xarajatlar tizimi⁷

№	Ko'rsatkichlar	2008 yil		2009 yil		2010 yil		2011 yil		2012 yil	
		Mln. so'm	Jamiga nisbatan (%)	Mln. so'm	Jamiga nisbatan (%)	Mln. so'm	Jamiga nisbatan (%)	Mln. so'm	Jamiga nisbatan (%)	Mln. so'm	amiga nisbatan (%)
I	Davlat maqsadli jamg'armalarsiz xarajatlar-jami	7453076,9	65,1	10913026,4	64,4	13732502,5	63,0	16991100,0	64,7	21571700,0	64,0
1.	<i>Ijtimoiy sohalar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlar – jami</i>	4000593,5	34,6	6170982,9	36,4	8113004,0	37,2	10112313,4	38,5	12513200,0	37,0
	<i>shu jumladan:</i>										
1.1	Maorif	2355021,5	20,5	3562916,5	21,0	4635065,9	21,3	5890847,3	22,4	7223700,0	22,0
1.2	Sog'liqni saqlash	861359,4	7,5	1290048,5	7,6	1704132,2	7,8	2217691,9	8,4	2820300,0	8,4
1.3	Madaniyat va sport	97812,3	0,9	127336,1	0,8	159913,3	0,7	194851,1	0,7	226900,0	0,7
1.4	Fan	34529,0	0,3	64317,8	0,4	83570,8	0,4	111052,5	0,4	140400,0	0,4
1.5	Ijtimoiy ta'minot	34532,3	0,3	47056,8	0,3	59281,1	0,3	74321,3	0,3	93800,0	0,3
1.7	Oilalarga ijtimoiy nafaqalar, shu jumladan bolali oilalar	585281,0	5,1	1043703,9	6,2	1431895,2	6,6	1582551,8	6,0	1899000,0	5,7
1.8	Oliy o'quv yurtlarini moddiy-texnik bazasini rivojlantirish fondi	-	-	-	-	-	-	-	-	70000	0,1
2.	<i>Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga dotatsiyalar</i>	65000,0	0,6							-	-
3.	<i>MNJ, MPJ va fuqarolar jamiyatlari institutlarini rivojlantirish mablag'lari va grantlari</i>	3000,0	0,03	4000,0	0,02	4500,0	0,02	5000,0	0,02	6000,0	0,02
4.	<i>Iqtisodiyot xarajatlari</i>	933302,6	8,2	1305744,7	7,7	1573250,1	7,2	1952119,4	7,4	2372000,0	7,1
5.	<i>Markazlashirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari</i>	595000,0	5,2	820000,0	4,8	825000,0	3,8	950000,0	3,6	1059300,0	3,2
6.	<i>Davlat xokimiyati, boshqaruv va sud organlarini saqlash xarajatlari</i>	186637,4	1,6	271905,8	1,6	351999,7	1,6	472304,6	1,8	629200,0	1,9
7.	<i>Fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlarini saqlash xarajatlari</i>	56730,2	0,5	85035,3	0,5	118508,2	0,5	152215,6	0,6	191700,0	0,6
8.	<i>Vazirlar Mahkamasining xazira jamg'armasi</i>	31500,0	0,3	34175,0	0,2	54175,0	0,2	57000,0	0,2	70900,0	0,2
9	<i>Ta'lim va tibbiyot muassasalarinirekonstruksiya qilish , kapital ta'mirlash va ta'minlash frndiga o'tkaziladigan mablag'lar</i>	-	-	-	-	-	-	-	-	264000,0	0,8
10.	<i>Boshqa xarajatlar</i>	1581313,2	13,8	2221182,7	13,1	2692065,5	12,3	3290147,0	12,5	4465400,0	13,3
II.	Davlat maqsadli jamg'armalarining (Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma, Davlat mulk qo'mitasining mahsus hisobvarag'i⁸) xarajatlari	3200362,8	28,0	4963075,5	29,3	6205612,1	28,5	7725383,1	29,4	10499800,0	31,3
III	Moliya vazirligi xuzuridagi budjetdan tashqari maktab ta'limi jamg'armasining xarajatlari	494369,6	4,3	577335,1	3,4	315487,2	1,4			-	-
IV	Moliya vazirligi xuzuridagi sug'oriladigan erlarni meliorativ yaxshilash jamg'armasining xarajatlari	75000,0	0,6	130000,0	0,8	150000,0	0,7	184500,0	0,7	210000,0	0,6
V.	O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish va taraqqiyot jamg'armasining xarajatlari	222498,0	1,9	354198,0	2,1	1408050,0	6,4	1368332,3	5,2	1496800,0	4,5
	Jami xarajatlar	11445306,0	100,0	16937635	100,0	21811651,8	100,0	26269315,4	100,0	33570400,0	100,0

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda PQ-744, 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024, 2009 yil 22 dekabrda №1245, 2010 yil 24 dekabr №1449-sonli va 2011 yil 30 dekabrda №1675 sonli qarorlari asosida tayyorlandi

⁸ 2011 yildan tarkibiga Maktab ta'limi jamg'armasi o'rniga Moliya vazirligi huzuridagi ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va ta'minoti byudjetdan tashqari jamg'armasi qo'shildi va 2012 yilda uning nomi Ta'lim va tibbiyot muassasalarinirekonstruksiya qilish , kapital ta'mirlash va ta'minlash fondi deb nomlandi.

Ijtimoiy-madaniy sohalarda olib borilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, bu sohalarni moliyaviy ta'minlashni takomillashtirish muvaffaqiyati ko'p jihatidan ijtimoiy kafolatlar qanday hal etilishiga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, ijtimoiy-madaniy sohalarning umumjamoatchilik maqomi uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va ijtimoiy takror ishlab chiqarish tizimidagi roli bilan bog'liq holda qayta ko'rib chiqiladi, bu sohalar xodimlari mehnati xususiyatining iqtisodiy baholanishi belgilab olinadi. Ijtimoiy-madaniy muassasalar faoliyatining natijalarini baholashga yangicha yondoshuvlar ishlab chiqiladi. Qo'yilgan vazifaning hal etilishigina ijtimoiy muammolarni hal etish, moliyaviy ta'minlash manbalarini belgilab olish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy sohalarga davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy zahiralarni miqdorini ilmiy asoslab berish imkonini yaratadi.

2013 yilgi davlat budjeti prognozlarida ham ijtimoiy sohalar va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog'liq xarajatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda va salmoqli o'rinni egallamoqda (2.3-jadval).

2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ya'ni 2013 yil uchun davlat budjeti xarajatlarning asosiy qismi, xususan 34,1 % maorif xarajatlariga, 14,3 % sog'liqni saqlash xarajatlariga yo'naltirishi belgilangan. Ko'rinib turibdiki, bu yilgi davlat budjetimiz xarajatlarning asosiy yo'nalishi davlatning ijtimoiy siyosati bilan bog'liq sohalarga yo'naltirilmoqda.

Ijtimoiy sohalar so'f holdagi ijtimoiy vazifalardan tashqari, xizmat sifatini yuksaltirish, iqtisodiy o'sish sur'ati bilan bog'liq iqtisodiy vazifalarni ham xal etadi, jamiyat mehnat imkoniyati shakllantirilishiga ko'mak beradi, chunki fan-texnika taraqqiyoti davrida jamiyat hayotiy faoliyati va eng avvalo, ishlab chiqarish shart-sharoitlari yangilanib borayotgan bir vaziyatda ijtimoiy-madaniy sohalar taraqqiyoti aholi turmush tarzi o'sishining muhim shartiga aylanib qoladigan yo'nalishdan bormoqda.

Ijtimoiy sohalarga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'lar miqdori oddiy takror ishlab chiqarishning muhim omili sifatida ijtimoiy muammolarni hal qilish bilan bog'liq xarajatlar qoplanishini ta'minlashi zarur.

2.3-jadval

Davlat budjetining 2013 yil uchun xarajatlari prognozi⁹

Ko'rsatkichlar	mlrd.so'm	Jamiga nisbatan (%da)	Jami davlat budjeti xarajatlariga nisbatan (%)
Davlat maqsadli fondlarsiz xarajatlar-jami	26312.4	63.2	100.0
Ijtimoiy sohalar va aholini ijtimoiy muhofaza qilish xarajatlari-jami	15573.5	37.4	59.2
<i>Shundan</i>			
Maorif	8984.6	21.6	34.1
Sog'liqni saqlash	3768.6	9.0	14.3
Madaniyat va sport	279.1	0.7	1.1
Fan	173.1	0.4	0.7
Ijtimoiy ta'minot	107.3	0.3	0.4
Oilalarga ijtimoiy nafaqalar, shu jumladan bolali oilalarga nafaqalar	1839.9	4.4	7.0
Qishloq joylarida individual uy joylarni qurish Dasturini o'z-o'zini moliyalashtirish kredit liniyalari	374.7	0.9	1.4
Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatlari institutlarini rivojlantirish uchun grantlar va mablag'lar	7	0.02	0.03
Iqtisodiyotga xarajatlar	2791.9	6.7	10.6
Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	1300	3.1	4.9
Davlat xukumati organlari va sudlar boshqarmalarini saqlash xarajatlari	825.9	2.0	3.1
Fuqarolarni o'z-o'zini boshqarsh organlarini saqlash xarajatlari	287.3	0.7	1.1
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zahira jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlarining zahira jamg'armasi	85	0.2	0.3
Boshqa xarajatlar	5441.8	13.1	20.7
Davlat maqsadli fondlari xarajatlari (Pensiya fondi, Yo'l fondi, Ta'lim va tibbiyot muassasalarini kapital ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va ta'minot jamg'armasi, Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi, Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat Qumitasining mahsus hisobraqami)	13571.9	32.6	x
Sug'oriladigan erlarni meliorativ xolatini yaxshilash jamg'armasi	227.5	0.5	x
O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	1545.1	3.7	x
Jami xarajatlar	41656.9	100.0	x

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013 yil uchun O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjetining asosiy parametrlari to'g'risida" gi PQ-1887-sonli Qarori asosida tayyorlandi

Shu o'rinda, mamlakatimiz aholisi sonining yildan-yilga o'sib borayotganligini qayd etish muhimdir. Mazkur o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida tug'ilish darajasi hisoblanadi.

Biroq, aholi sonining o'sishi uning munosib turmush darajasini ta'minlash borasida ham muayyan mas'uliyatlarni keltirib chiqaradi. Bulardan asosiysi – farovon hayot kechirish uchun ish o'rni va etarli daromad hajmiga ega bo'lish hisoblanadi. Shunga ko'ra, har qanday ijtimoiy yo'naltirilgan taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakat uchun ishchi kuchi bandligi muammosini hal etish muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, ijtimoiy tadbirlarni moliyalashtirishni tejab qolish jamiyatga kelgusida katta zarardirki, bu yalpi ichki mahsulot va milliy daromad kamayishiga olib keladi. Inson kapitaliga investitsiya muammosi nafaqat umumiy iqtisodiy samaradorlik nuqtai-nazaridan dolzarb bo'libgina qolmasdan, balki ijtimoiy-madaniy sohalarga moliyaviy qo'yilmalarning sezilarli darajada o'sishi iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy yo'naltirilganligidan dalolat beradi va natijada iqtisodiy o'sishning sifatini ham belgilab turadi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirishga va aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu chora-tadbirlarning hayotga tadbiiq etilishida davlat budjetining ijtimoiy funksiyalari ayniqsa ravshanroq namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotning barqaror o'sishi bilan bir qatorda, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy Dasturi, Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat Dasturi, Aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish Davlat dasturi va boshqa ijtimoiy dasturlar, hukumatning boshqa qarorlariga muvofiq amalga oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar majmui ijtimoiy sohadagi

Mazkur vazifalarni hayotga tadbiq etish ko'p jihatdan mahalliy moliya mablag'larini shakllantirish va boshqarishning usul va shakllarini yangicha talqin etishga bog'liq.

Hududiy iqtisodiyot va hududdagi ijtimoiy jarayonlarni bshqarish va tartibga solishda mahalliy davlat hokimiyati organlari alohida o'rin egallaydi. 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi № 913-XII-son O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari"¹⁰ hisoblanadi. Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashish asosida o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadilar. Yuqoridagi Qonunga muvofiq, viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslarini budjet mablag'lari, budjetdan tashqari fondlar, aniq maqsadga qaratilgan fondlar, kredit resurslari, shuningdek respublika (viloyat, Toshkent shahri) budjetidan ajratilgan subventsiyalar va dotatsiyalar tashkil etadi¹¹.

O'zbekiston Respublikasi "Budjet tizimida"gi Qonuniga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga belgilanadigan cheklovlar quyidagilardan iboratdir:

¹⁰ "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi (02.09.93.) 913-XII-son O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1-modda.

¹¹ "Usha erda

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti hamda mahalliy budjetlar balansli daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi kerak. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetini va mahalliy budjetlarni qabul qilish va ijro etishda:

1) qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan manbalar hisobiga jamg'armalar tashkil etishga;

2) mablag' jalb qilishni amalga oshirishga (yuqori budjetlardan budjet ssudalari olish bundan mustasno);

3) budjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag'dan ortiqroq mablag' sarflashga (ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno);

4) budjet mablag'lari hisobidan boshqa shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

5) yuridik va jismoniy shaxslarga budjet ssudalari berishga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu cheklovlarga mahalliy budjetlarni rejalashtirish va ularni ijrosini amalga oshirishda rioya qilinishi shartdir.

Mahalliy budjetlar xarajatlarning xarajatlarini boshqarish printsiplari xukumat tomonidan qabul qilinga qonuniy-me'yoriy normativlarga asoslanadi va bu me'yoriy normativlarning asosiylari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni hamda "Mahalliy davlat xokimiyati organlari to'g'risida" gi Qonuni hisoblanadi. Ushbu qonunlarda bugungi kunda mahalliy budjetlar xarajatlarini boshqarish printsiplari belgilab berilgandir.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunining 36-moddasida ko'rsatilishicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshka moliya organlari Davlat budjeti uning tuzilmasiga kiruvchi budjetlarning qonun xujjatlarida belgilangan ko'rsatkichlar doirasida bajarilishi uchun javobgardir. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati idoralari to'g'risida" gi konunning 3-bobida (11-15-moddalari) mahalliy davlat hokimiyati idoralarning moliyaviy asoslari ko'rsatib berilgan. Ushbu qonunning 12-moddasida ko'rsatilishicha viloyat, tuman, shahar kengashlari tegishli budjetlarni tasdiqlaydilar.

Viloyat moliya boshqarmalari mahalliy budjetlarning ijro etilishini taminlaydi va mahalliy budjetni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining qonun xujjatlarida belgilangan vakolati doirasida ijro etadilar.

Maxalliy budjet xarajatlarini boshkarish tartiblari O'zbekiston Respublikasining Konunlari, Vazirlar Maxkamasining karolari xamda Moliya vazirining kator yuriknomalarida belgilab berilgan.

Budjet tashkilotlari va budjetdan boshka mablag'lari oluvchilarni mablag' bilan ta'minlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-son qarorida belgilangan.

Qorakalpogiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri budjetlarida yilning ayrim davrlarida daromadlar va xarajatlar o'rtasida vujudga keladigan vaqtinchalik kassa tafovutlarini qoplashga Respublika budjetidan ssudalar berilishi mumkin.

2.4- jadval

Davlat budjetining iqtisodiyot xarajatlari tarkibi¹²

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil	
	milliard so'm	foiz da	milliard so'm	foiz da
Davlat budjeti xarajatlari, milliard so'm	16991,1	100	21571,7	100
Iqtisodiyotga ajratilgan xarajatlar	1952,1	11,5	2372,0	11,0
Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan	648,8	3,8	766,9	3,5

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T.: "O'qituvchi" NMIU, 2012 y. 69-b.

elektr-energiyasi to'lovlari				
Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar	184,5	1,1	210,0	0,9
Hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo'jalklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar	140,0	0,8	160,0	0,7
Boshqa xarajatlar	978,8	5,7	1235,1	5,7

Budjetning ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlari nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy ahamiyatga ega. Ular mamlakat fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan ijtimoiy xuquqlarini amalga oshirishning moliyaviy bazasi bo'lib xizmat qiladi va o'z navbatida, ijtimoiy ishlab chiqarishga bilvosita ta'sir ko'rsatib, mehnat resurslarining sifat tarkibini yaxshilash, fan yutuqlaridan foydalanish asosida mehnat unumdorligini oshirish uchun shart-sharoit yaratish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish vazifalarini bajaradi

2.4- jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, davlat budjetidan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlar 2011 yilda 1952 milliard so'm, 2012 yilda esa 2372 milliard so'mni tashkil qilishi ko'zda tutilgan. Ushbu xarajatlar tarkibida Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr-energiyasi to'lovlari 2012 yilda jami xarajatlarning 3,5 foizni, sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar 0,9 foizni, hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo'jalklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar 0,7 foizni, boshqa xarajatlar 5,7 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan. Umuman, davlat budjetidan iqtisodiyot xarajatlari asosan qishloq va suv xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilmoqda. Shu orqali agrar tarmoqda faoliyat yurituvchi

korxonalarini va xususan, fermer xo'jaliklarining barqaror faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

2.2 Davlat budjetidan mablag' oluvchi budjet tashkilotlarini xarajatlarini to'lashning amaldagi tartibi va uning tahlili

Budjetni ijro etish tizimida esa majburiyatlarni qabul qilish – bu budjet tashkiloti tomonidan smeta xarajatlarida ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida kelajakda moliyaviy xarajatlarni amalga oshirish harakatidir.

Majburiyat me'yoriy-huquqiy xujjatlarga asosan majburiyat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan qabul qilinadi. Qabul qilinadigan majburiyatlar summasi tasdiqlangan budjet mablag'lari me'yoridan oshib ketmasligi lozim.

Majburiyatlarni hisobga olish tizimida quyidagi omillar asosiy o'rin egallaydi:

- majburiyatlarni qabul qilish asoslari;
- majburiyat qabul qilish huquqiga ega mas'ul shaxslar;
- majburiyatning turlari (yuridik va moliyaviy).

Budjet mablag'lari oluvchi budjet tashkiloti rahbari yoki u tomonidan vakolat berilgan boshqa mas'ul shaxslar majburiyatlarni qabul qilish huquqiga ega bo'ladilar.

Yuridik majburiyat budjetdan mablag' oluvchilar va ularga mol (tovarlar, ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnoma tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga keladi.

Yuridik majburiyatlarni hisobga olishning asosiy maqsadi budjet nazoratining samaradorligini yanada oshirish, ya'ni xarajatlarning tasdiqlangan rejadan ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasiga muvofiq, "Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi".

Fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar.

Shartnoma bo'yicha taraf o'z burchlarini bajarganligi uchun haq olishi yoki unga boshqa muqobil to'lov to'lanishi lozim bo'lsa, bunday shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma bo'ladi.

Shartnoma bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafga undan haq yoki boshqa muqobil to'lov olmasdan biron narsani berish majburiyatini olsa, bunday shartnoma tekinga tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Agar qonun hujjatlaridan, shartnomaning mazmuni yoki mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Xo'jalik shartnomasi deb taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuvga aytiladi¹³.

Shartnomalarni tuzish va bajarish jarayoni bir qator qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Jumladan, Fuqarolik Kodeksi va 1998 yil 29 avgustdagi № 670-I-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi eng asosiy qonun hujjatlari bo'lib hisoblanadi.

Qonunga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- xo'jalik shartnomalarini tuzish erkinligi;
- taraflarning o'zaro manfaatdorligi;
- shartnoma intizomiga rioya etish;
- taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi.

Xo'jalik shartnomasi, qoida tariqasida taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo'llashi va ikkinchi taraf uni aktseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo'li bilan tuziladi.

¹³ O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida» № 670-son Qonuni. 3-modda. 29.08.1998 y.

Agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari bo'yicha kelishuvga erishilgan bo'lsa, xo'jalik shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Xo'jalik shartnomalari ularni imzolashga tayyorlash jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirib ko'rilishi kerak. Shartnomalarni ularning imzolarisiz tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki yuz baravaridan ortiq summadagi xo'jalik shartnomalari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yuridik xizmatining yoki jalb etilgan advokatlarning yozma xulosasidan keyingina tuziladi.

Xulosada, qoida tariqasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- xo'jalik shartnomasida ko'rsatilgan munosabatlar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi;
- xo'jalik shartnomasi shartlarining qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi;
- taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi.

Xo'jalik shartnomasi shartnoma shartlariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo'lmagan hollarda esa ish muomalasi odatlariga muvofiq bajarilishi lozim.

Tovarlarni etkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq etkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar etkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq etkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

Tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiy foydalanishdagi transportda yo'lovchi tashish, aloqa xizmati, energiya bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati va sh.k.) belgilab qo'yadigan shartnoma *ommaviy shartnoma* deyiladi. Bunday tashkilot ommaviy shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Tovarlar, ishlar va xizmatlarning bahosi, shuningdek ommaviy shartnomaning boshqa shartlari hamma iste'molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi, qonun xujjatlarida iste'molchilarning ayrim toifalari uchun imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno.

Tashkilotning iste'molchiga tegishli tovarlarni berish, xizmatlar ko'rsatish, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo'la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Hukumati ommaviy shartnomalarni tuzish va bajarishda taraflar uchun majburiy bo'lgan qoidalar (namunaviy shartnomalar, qoidalar va h.k.) chiqarishi mumkin.

Budjet tashkilotlari bilan tovar etkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi)lar o'rtasida tuzilgan shartnomalarni boshqarishning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 21.05.2005 y.da № 1475 raqami bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 05.05.2005 y.dagi 63-sonli Buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliya organlarida budjetdan mablag' oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning xarajatlari to'lovini nazorat qilish tartibi haqida vaqtinchalik Nizom" tashkil qiladi.

Ushbu Nizomga ko'ra, budjetdan mablag' oluvchilar etkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadilar, shuningdek shartnomalarga budjetdan mablag'

oluvchilarning xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan tegishli rejali budjet mablag'lari doirasidagina qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritadilar.

Budjetdan mablag' oluvchilar bilan etkazib beruvchilar o'rtasida tuziladigan shartnomalar tegishli moliya organlarida majburiy ro'yxatdan o'tkazilib, ularga tegishli raqamlar berilishi va ro'yxatdan o'tkazish sanasi ko'rsatilishi kerak.

Yuqorida nomi keltirilgan Nizomga muvofiq, budjetdan mablag' oluvchilar mol etkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadilar, shuningdek shartnomalarga budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan tegishli rejali budjet mablag'lari doirasidagina qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritadilar.

Budjetdan mablag' oluvchilar bilan etkazib beruvchilar o'rtasida tuziladigan shartnomalar tegishli moliya organlarida majburiy ro'yxatdan o'tkazilib, ularga tegishli raqamlar berilishi va ro'yxatdan o'tkazish sanasi ko'rsatilishi kerak.

Shartnomani hisobga olish G'aznachilik organi tomonidan budjetdan mablag' oluvchi va etkazib beruvchining nomi hamda rekvizitlari, shuningdek shartnoma summasi, uning raqamlari va tuzish sanasi, moliya organi tomonidan Nizomga 1-son ilovaga ko'ra budjetdan mablag' oluvchilar bilan etkazib beruvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish kitobida ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasi ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi.

Moliya organi budjetdan mablag' oluvchi tomonidan shartnoma taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida budjetdan mablag' oluvchining xarajatlar smetasida nazarda tutilgan tegishli rejali budjet mablag'lari mavjudligi masalasida shartnomada ko'rsatilgan summani tekshiradi.

Agar tuzilgan shartnomaga ko'ra to'lanadigan pul mablag'lari summasi budjetdan mablag' oluvchining xarajatlari smetasida nazarda tutilgan rejali budjet mablag'lari summasidan oshib ketsa, mazkur shartnoma budjetdan mablag' oluvchiga uni moliya organi tomonidan ro'yxatdan o'tkazmasdan turib qaytariladi.

Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish budjetdan mablag' oluvchi tomonidan shartnoma taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida shartnoma asl nusxasi va ko'chirma nusxasining birinchi varag'iga "Ro'yxatdan o'tkazildi" yozuvini qo'yish va ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasi ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi, ularni moliya organining mansabdor shaxsi o'z imzosi va moliya organining muhri izi bilan tasdiqlaydi. Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaning ko'chirma nusxasi hisobga olish va saqlash uchun moliya organida qoladi.

Narxlar monitoringining zarurligi. Budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish uchun bosqichli nazoratni to'liq joriy qilishni taqozo etadi. Ya'ni, budjet tashkiloti kontragentdan tovarlar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida ofertani (taklifni) qabul qilib olganidan so'ng, shartnomani aktseptlaydi (imzolaydi) va G'aznachilikka ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi. Yuridik majburiyat vujudga kelishi uchun bu shartnomaning ro'yxatdan o'tkazilishi talab qilinadi. G'aznachilikda yuridik majburiyat vujudga kelishidan avval dastlabki nazoratni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu *narxlar monitoringi* orqali ta'minlanadi.

Bunda budjet tashkiloti sotib olmoqchi bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi muqobil etkazib beruvchilar narxlari bilan taqqoslanadi. Muqobil etkazib beruvchilar to'g'risida ma'lumot to'plashning turli usullari mavjud. Masalan:

- tovar xom-ashyo birjalari ma'lumotlaridan foydalanish;
- bozorlardan ma'lumotnomalar olish;
- raqobatchi tashkilotlardan tijorat takliflari olish;
- ommaviy axborot vositalari va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlaridagi

ma'lumotlarni umumlashtirish.

Xo'jalik shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish chog'ida har bir shartnomaga bir nechta (eng kamida 4 ta) etkazib beruvchining tijorat taklifi ilova qilinishi, bunda har bir etkazib beruvchining rekvizitlari (nomi, manzili, telefon raqamlari, rahbari to'g'risidagi ma'lumotlari) aniq ko'rsatilishi, etkazib beruvchilar shu

sohada uzoq yillik ish tajribasiga ega bo'lgan, yuqori mavqeli korxonalar bo'lishi tavsiya etiladi.

O'zbekistonda ishlab chiqariluvchi tovarlar vositachilarsiz, aynan ishlab chiqaruvchining o'zidan sotib olinishi, chetdan keltiriluvchi tovarlar esa bevosita importyordan sotib olinishi narxlarning asossiz o'sishining oldini oladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lsa yoki xorijiy grantlar va kreditlar taqdim etilishida boshqacha shartlar belgilangan bo'lsa, bunday hollarda mazkur Nizom tartibi qo'llanilmaydi.

Tenderlar o'tkazishdan asosiy maqsad - xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilishga yo'naltiriladigan davlat budjeti, davlat budjetida jamlanadigan budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar mablag'laridan, hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va xorijiy grantlardan foydalanish samaradorligini oshirish; xarid qilinadigan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar sifatini oshirish hisoblanadi.

Bitta kontrakt bo'yicha 100 ming AQSh dollari ekvivalentidan ko'proq summaga tovar etkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi) rejalashtirilganda tender savdolari o'tkaziladi. Bundan kam summadagi kontraktlar eng yaxshi takliflarni konkurs asosida tanlab olish yo'li bilan tuziladi.

O'tkazish usullariga ko'ra tenderlar ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Tender turi harid qiluvchi tashkilot, ya'ni buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Ochiq tenderlarda mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha yuridik shaxslar qatnashishi mumkin.

Yopiq tenderlar istisno hollarda Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda, buyurtmachi oldindan belgilab qo'ygan tashkilotlar ishtirokida o'tkaziladi, bu tashkilotlarga taklifnomalar jo'natiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari budjet mablag'lari oluvchilari tomonidan sotib olinganda, Moliya vazirligining 2007 yil 9 apreldagi 798-sonli xati asosida narxlar monitoringi amalga oshiriladi.

Bunda G'aznachilik hududiy bo'linmalari tomonidan budjetdan mablag' oluvchilar xarid qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha narxlar monitoringi Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilinadigan asosiy iste'mol mahsulotlarining oylik o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumot asosida olib boriladi.

Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida Moliya Vazirligi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotda ko'rsatilgan narxlardan ortiq bo'lgan narxlarda tuzilgan shartnomalar G'aznachilik hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatga olinmaydi.

Kelgusida G'aznachilikda budjet tashkilotlari tomonidan sotib olinuvchi tovarlar narxlari to'g'risida elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish, uni tuzish va yangilab borishda Respublika tovar xom ashyo birjasidagi narxlar kotirovkasini, Davlat Bojxona qo'mitasi ma'lumotlar bazasini, respublikadagi yuqori mavqega ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilar va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlari ma'lumotlarini hisobga olish tavsiya etiladi.

Yuridik majburiyat tushunchasi budjet tashkiloti bilan kontragent o'rtasida ma'lum bir muddatdan so'ng ma'lum bir tovarni etkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida shartnoma imzolanganidan va bu shartnoma tegishli tartibda G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga kelishi haqida ma'lumot berdik.

Moliyaviy majburiyat esa ana shu shartnomaga muvofiq tovarlar etkazib berilganidan (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi. Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishini talab etadi. Masalan, *schet-fakturalar*, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi *qabul qilib olish-topshirish dalolatnomalari* (akt priema-sdachi), *ish haqi qaydnomalari* (vedomostlar) va boshqa shu kabi hujjatlar. Mazkur hujjatlar tegishli vakolatga ega bo'lgan mas'ul shaxslar tomonidan imzolanishi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi shart. Amaldagi qonunchilik talablariga ko'ra budjet tashkilotlari oldindan eng kamida 20 foiz to'lovni amalga oshirishlari talab qilinadi.

Moliyaviy majburiyat G'aznachilikning Bosh kitobida qayd qilinadi. Moliyaviy majburiyat shartnoma yoki boshqa kelishuvlarning muddati o'tgunga qadar qoplanishi lozim.

Moliyaviy majburiyatlarni hisobga olishning asosiy maqsadi qabul qilingan yuridik majburiyatlar asosida tasdiqlangan budjet rejasi va o'rnatilgan budjet me'yorlari doirasida xarajatlarni amalga oshirishni ta'minlash hamda budjet tashkilotlari kreditorlik qarzlarini nazorat qilishdan iboratdir.

Moliyaviy majburiyatlarning limitini baholash. Ma'lumki, budjet tashkiloti tasarrufidagi pul mablag'lari miqdori moliya organi tomonidan tasdiqlangan smeta bilan cheklangan. Moliyaviy majburiyatni qabul qilish chog'ida yuridik majburiyatlarni ham smetada ko'rsatilgan xarajat moddalari doirasidan chetga chiqmasligi nazorat qilinadi.

Budjet tashkiloti yil davomida ko'plab kontragentlar bilan shartnomalar tuzadi. Ularning bajarilishini ta'minlash uchun pul to'lovlarini amalga oshiradi. Moliyaviy majburiyatlar limitini baholashda xarajatlar smetasining I- va II-guruh xarajatlarining o'z vaqtida moliyalashtirilishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar o'z vaqtida, kechiktirmasdan berilishi, ish haqidan ajratmalar o'z vaqtida o'tkazilishi shart. Boshqa xarajatlar (IV-guruh)ni amalga oshirishda ham budjet tashkiloti tejamkorlik, optimallik tamoyillariga amal qilgan holda xarajatlar to'lovini amalga oshirish ketma-ketligiga ((1)ozuq-ovqat, (2)dori-darmon, (3)kommunal xizmatlar, (4)boshqa xarajatlar) rioya qilishi talab etiladi. Xarajatlar tegishli ruxsat asosida amalga oshirilishi hamda ularning hajmi yillik ajratmalar va xarajatlarni amalga oshirish ruxsati (HAOR) miqdoridan ortib ketmasligi shart.

G'aznachilikda moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va to'lovlarni amalga oshirish. Budjet tashkiloti va ta'minotchi o'rtasida tuzilgan shartnoma g'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilib, ta'minotchi ro'yxatdan o'tgan shartnomani olgandan keyin, shartnoma shartlariga asosan tovar va xizmatlar etkazib berishni boshlaydi. G'aznachilik bo'limlarida ro'yxatdan o'tmagan

shartnomalar bo'yicha ta'minotchi tovar va xizmatlar etkazib berishga haqqi yo'q.

Tovar va xizmatlar etkazib berilgandan so'ng ta'minotchi budjet tashkilotiga schet-faktura (bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi)ni taqdim etadi.

U yoki bu tomon shartnoma shartlarini bajarmagan taqdirda shartnoma summasi kamaytirilishi yoki shartnoma umuman bekor qilinishi mumkin. Masalan, etkazilgan tovar va xizmatlar shartnomada ko'rsatilgan tovar va xizmat talablariga (sifati, hajmi va boshqalar) javob bermagan taqdirda budjet tashkiloti g'aznachilik bo'limlariga shartnomani bekor qilish haqida so'rov xujjati tayyorlab taqdim etishi lozim.


Bekor qilish haqidagi so'rovnomada ko'zda tutilgan shartnomani bekor qilish uchun ro'yxatdan o'tkazilgan shartnoma bo'yicha barcha ma'lumotlar to'liq aks ettirilishi lozim. Shartnomani bekor qilish so'rovnomasi qabul qilingan majburiyat summasini qisman yoki umuman bekor qiladi.

Ma'lum summaga bekor qilingan yuridik majburiyat shu summaga budjetga tiklanadi.

Budjet tashkiloti mol etkazib berilganligi to'g'risidagi schet-fakturani olgach, to'lov arizasini tuzadi. To'lov arizasi – schet-faktura asosida tayyorlanadigan buxgalteriya hujjati bo'lib, budjet tashkilotining kreditorga (mol etkazib beruvchiga) ma'lum summani to'lash uchun G'aznachilikka taqdim etadigan topshiriqnomasi.

To'lov arizasini tayyorlash (tuzish) budjet tashkiloti vazifasiga kiradi. Budjet tashkiloti schet-fakturani qabul qilgan paytning o'zida to'lov arizasini 2 nusxada tegishli G'aznachilik bo'limlariga qonunchilikda nazarda tutilgan vaqtda taqdim etishi lozim. Qonunchilikka asosan arizaga majburiy xujjatlar (masalan, schet-faktura, bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va boshqalar) ilova qilinadi. Budjet tashkiloti schet-fakturada uni qabul qilgan sanasini aks ettirishi shart.

Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish chog'ida G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan nazorat quyidagilarni o'z ichiga oladi (2.2-rasm):



2.2-rasm. Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish chog'ida G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan nazorat¹⁴

Etkazib beriladigan tovar (ishlar, xizmatlar) uchun xarajatlarni to'lash bo'yicha to'lovlarni, shu jumladan bo'nak to'lovlarini amalga oshirish uchun budjetdan mablag' oluvchilar moliya organiga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan to'lov topshiriqnomalarini quyidagi tarzda taqdim etadilar:

a) budjetdan mablag' oluvchi va etkazib beruvchiga bitta bank muassasasida xizmat ko'rsatilsa, to'rt nusxada. To'lov topshiriqnomalarining birinchi va to'rtinchi nusxalari budjetdan mablag' oluvchining tegishli mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi va budjetdan mablag' oluvchining muhri izi bilan tasdiqlanadi;

b) budjetdan mablag' oluvchi va etkazib beruvchiga turli bank muassasalarida xizmat ko'rsatilsa, uch nusxada. To'lov topshiriqnomalarining birinchi va uchinchi nusxalari budjetdan mablag' oluvchining tegishli

¹⁴ B.I. Nurmuxamedova "G'aznachilik" fanidan ma'ruza matnlari. T. 2012 y.

mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi va budjetdan mablag' oluvchining muhri izi bilan tasdiqlanadi.

Budjetdan mablag' oluvchilar o'z xarajatlarini to'lash uchun moliya organiga mablag'larni o'z bank hisobraqamlaridan o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomalari, hisobvaraqa-fakturalar yoki tovar (ishlar, xizmatlar) etkazib berilganligini va budjetdan mablag' oluvchining etkazib beruvchidan qarzi mavjudligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar, shuningdek budjetdan mablag' oluvchi zimmasiga etkazib beruvchiga bo'nak to'lovini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan hujjatlarni taqdim etadilar. Bo'nak to'lovi hisobiga mablag'larni to'lash uchun budjetdan mablag' oluvchi budjetdan mablag' oluvchi zimmasiga etkazib beruvchiga bo'nak to'lovini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan hujjatlarga binoan to'lov topshiriqnomasini taqdim etadi.

Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan taqdim etilgan to'lov hujjatlari va ularga ilova eilingan hujjatlarni tekshirish, shuningdek to'lov topshiriqnomalarini ijro uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka topshirishni moliya organlari, qoidaga ko'ra ular taqdim etilgan kunda amalga oshiradilar.

Budjetdan mablag' oluvchilar taqdim etgan hujjatlar "Vaqtinchalik nizom" talablariga muvofiq kelsa, moliya organi to'lov topshiriqnomasi birinchi va to'rtinchi (yoki uchinchi) nusxalarining orqa tomoniga "Tekshirildi" yozuvini qo'yish yo'li bilan to'lov topshiriqnomalariga tegishli belgilarni qayd etadi, ularni moliya organining mansabdor shaxsi o'z imzosi va moliya organi muhri bilan tasdiqlaydi.

Budjetdan mablag' oluvchilar taqdim etgan to'lov va boshqa hujjatlar Nizom talablariga muvofiq kelmasa, moliya organi ularni budjetdan mablag' oluvchiga qaytarib, to'lov topshiriqnomalarining orqa tomoniga ularga belgi qo'ymasdan, muvofiq emaslik sabablarini ko'rsatadi.

Budjetdan mablag' oluvchilar to'lov topshiriqnomalarining barcha nusxalari va Budjetdan mablag' oluvchilar to'lov topshiriqnomalari reestrining ikki nusxasini moliya organi budjetdan mablag' oluvchilarga xizmat ko'rsatadigan tegishli bankka topshiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan to'lov topshiriqnomalari Reestr ma'lumotlari bilan solishtirilganidan va moliya organining budjetdan mablag' oluvchilarning to'lov topshiriqnomalarida belgisi mavjudligini tekshirganidan so'ng, Reestrning birinchi nusxasi tegishli to'lov topshiriqnomalari bilan birga bankda qoladi, Reestrning bank shtampi va bank mas'ul xodimining imzosi qo'yilgan ikkinchi nusxasi esa moliya organiga qaytariladi.

To'lov topshiriqnomasi ijrosidan keyin xizmat ko'rsatuvchi bank to'lov topshiriqnomalarining hamma nusxalariga va Reestrning tegishli satrlarida ijro etilgan to'lov topshiriqnomalari qarshisiga to'lov to'g'risida shtamp qo'yadi.

To'lovdan so'ng:

a) xizmat ko'rsatuvchi bankka to'lov topshiriqnomalarining to'rt nusxasi taqdim etilgan taqdirda:

-birinchi nusxasi Reestr bilan birga bankning kun hujjatlariga tikiladi;

-ikkinchi nusxasi etkazib beruvchining shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi;

-uchinchi nusxasi budjetdan mablag' oluvchining shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirmaga ilova eilinadi va ke-yin budjetdan mablag' oluvchiga topshirish uchun moliya organiga topshiriladi;

-to'rtinchi nusxasi moliya organiga topshiriladi.

Budjetdan mablag' oluvchining bank hisobraqamidan bank ko'chirmasi, shuningdek to'lov topshiriqnomasining uchinchi va to'rtinchi nusxalari olinganidan keyin moliya organi budjetdan mablag' oluvchiga unga to'lov topshiriqnomasining uchinchi nusxasini ilova qilgan holda bank ko'chirmasini topshiradi. Bank ko'chirmasi nusxasi va to'lov topshiriqnomasining to'rtinchi nusxasi moliya organida qoladi;

b) xizmat ko'rsatuvchi bankka to'lov topshiriqnomasining uch nusxasi taqdim etilgan taqdirda:

birinchi nusxasi Reestr bilan birga bankning kun hujjatlariga tikiladi;

ikkinchi nusxasi budjetdan mablag' oluvchining shaxsiy hisobraqamidan ko'chirmaga ilova qilinadi va keyin budjetdan mablag' oluvchiga topshirish uchun moliya organiga topshiriladi;

topshiriqnomaning uchinchi nusxasi moliya organiga topshiriladi.

Budjetdan mablag' oluvchining bank hisobraqamidan bank ko'chirmasi, shuningdek to'lov topshiriqnomasining ikkinchi va uchinchi nusxalari olinganidan ke-yin moliya organi budjetdan mablag' oluvchiga unga to'lov topshiriqnomasining ikkinchi nusxasini ilova qilgan holda bank ko'chirmasini topshiradi. Bank ko'chirmasi nusxasi va to'lov topshiriqnomasining uchinchi nusxasi moliya organida qoladi.

Xarajatlarning quyidagi guruhlari Davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadi:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar;

II. Ish haqiga qo'shimchalar;

III. Kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro'yxatlarga muvofiq);

IV. Boshqa xarajatlar.

G'azna ijrosiga o'tgan budjet tashkilotlarining xarajatlari Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan yagona g'azna hisob raqamidan, shuningdek yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar guruhlarning har bir moddasi bo'yicha hududiy g'aznachilik hisob raqamidan amalga oshiriladi.

Xarajatlarning I va II guruhlariga kiritilgan budjet tashkilotlari birinchi navbatda xarajatlarini to'lash. Bunda II xarajatlarning guruhiga tegishli mablag' o'tkazmasdan I guruh xarajatlarini amalga oshirish taqiqlanadi. Yagona g'azna hisob raqamida, shuningdek hududiy g'aznachilik hisob raqamida birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha to'lanmagan xarajatlar summasidan ortiq mablag'lar mavjud bo'lganda ortiqcha summa miqdorida uchinchi va to'rtinchi guruhlar bo'yicha xarajat qilishga ruxsat etiladi.

Kapital qo'yilmalarga ajratmalar joriy budjet yili uchun tasdiqlangan Respublika investitsiya dasturiga muvofiq qurilishlarning aniq ro'yxatlariga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ajratiladi. G'aznachilik tomonidan xizmat ko'rsatiladigan buyurtmachilar ob'ektlari qurilishiga Davlat budjetida nazarda tutilgan xarajatlar G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining joriy yilga tasdiqlangan Investitsiya dasturiga hamda qurilishlarning aniq ro'yxatiga muvofiq, buyurtmachilarning Moliya vazirligining G'aznachiligida va uning hududiy bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarga asosan to'lanadi.

Xarajatlarning I va II guruhlarini respublika va mahalliy budjetlardan xarajatlarini to'lash smetalarga va budjet xarajatlari ro'yxatlariga, ularga kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda, shuningdek oldingi hisobot davri uchun belgilangan baholash ko'rsatkichlarining bajarilishiga muvofiq har oyda amalga oshiriladi. Kapital qo'yilmalarni va boshqa xarajatlarni to'lash budjetga mablag'lar tushishiga qarab har oyda amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlari xarajatlarini:

- respublika budjetidan mablag' bilan ta'minlash (to'lash) - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida belgilangan shakldagi maqsadli sertifikat (unda budjet tasnifnomasi paragraflari va xarajatlar guruhlarini ko'rsatgan holda) va xarajatlarning har bir guruhi bo'yicha bir satrda mablag' o'tkazish uchun to'lov qog'ozi bilan rasmiylashtiriladi;

- mahalliy budjetlardan mablag' bilan ta'minlash (to'lash) - tegishli moliya organlarida belgilangan shakldagi tayinlash sertifikati va xarajatlarning har bir guruhi bo'yicha bir satrda mablag' o'tkazish uchun to'lov qog'ozi bilan rasmiylashtiriladi.

"Boshqa xarajatlar" IV guruhi bo'yicha mablag'lar belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda sarflanadi:

- ovqatlantirish;
- dori-darmonlar;
- kommunal xizmatlar;

- boshqa xarajatlar.

Hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budget tashkilotlarining hisob raqamlarida qolgan tejab qolingan budget mablag'lari (kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno) olib qo'yilmaydi, Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi va mazkur Tartib talablariga muvofiq sarflanadi;

G'azna ijrosiga o'tgan budget tashkilotlari bo'yicha hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budget tashkilotlarining Moliya vazirligi G'aznachiligida va uning hududiy bo'linmalarida ochilgan hisob raqamlarida qolgan tejab qolingan mablag'lar (kapital qo'yilmalar bo'yicha xarajatlarni to'lash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno) olib qo'yilmaydi, Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi va undan mazkur Tartib talablariga muvofiq foydalaniladi;

Tejab qolingan budget mablag'larini o'tkazish budget tashkilotlari tomonidan yuridik va moliyaviy majburiyatlar olinmagan budgetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida hisobot choragidan keyingi oy mobaynida amalga oshiriladi.


Budget tashkilotlarini kelgusi chorakda mablag' bilan ta'minlash hajmi hisobot choragida tejab qolingan budget mablag'lari summasiga kamaytirilmaydi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budget tashkilotlarining qo'shimcha daromadlari mablag' bilan ta'minlashning quyidagi manbalari:

1. faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish;
2. budget tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berish;
3. yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budget tashkilotlariga ko'rsatiladigan homiylik (begaraz) yordami hisobiga olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat budgetining g'azna ijrosi to'g'risidagi" qonuni talablaridan kelib chiqib 2012 moliya yili 1 yanvaridan boshlab Davlat budgetining daromadlari va xarajatlari G'aznachilikning Yagona g'azna

hisobvarag'idan amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda Quyida keltirilgan 2.3-rasmda Yagona g'azna hisobvarag'ida pul mablag'larining harakati chizmasi keltirilgan



2.3-rasm. Yagona g'azna hisobvarag'larida pul mablag'larining harakati¹⁵

Budjet tashkilotlari yoki fond mablag'larini tasarruf etuvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish hamda ilgari ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar orqali tegishli operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida o'zgartirishlar bo'lmaydi hamda ushbu shaxsiy hisobvaraqlardan xarajatlarni amalga oshirishning amaldagi tartibi saqlab qolinadi. Bunda, budjetdan mablag' oluvchilarning amalda ishlab turgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari yopilmaydi va belgilangan (odatiy) tartibda ishlaydi.

Budjetdan mablag' oluvchilar va fond mablag'lari tasarruf etuvchilarning 2012 moliya yilidan boshlab tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchilar bilan tuziladigan shartnomalarida shu jumladan, kapital qurilish bo'yicha yildan yilga o'tuvchi ob'ektlar bo'yicha shartnomalariga qo'shimcha kelishuvlarda hamda to'lov hujjatlarida to'lovchi ya'ni, g'aznachilik rekvizitlari qismida Yagona

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi ma'lumotlari asosida

g'azna hisobvarag'i va ularning shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ko'rsatiladi (tegishli budjetlar uchun ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraq bundan mustasno). Budjetdan mablag' oluvchilarning 2012 moliya yilidan boshlab budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga kelib tushadigan (tovar ishlab chiqarish va sotish, xizmatlar ko'rsatish, to'lov kontrakt mablag'lari, ota-onalar to'lovlari va boshqa to'lovlar) tushumlarida oluvchi ya'ni, g'aznachilik rekvizitlari qismida Yagona g'azna hisobvarag'i rekvizitlari ko'rsatiladi.

3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINI SAMARALI IJROSINI TA'MINLASH MASALALARI

3.1 Davlat budjeti xarajatlarining g'azna ijrosini takomillashtirish masalalari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatni rivojlantirish sharoitida davlat budjeti xarajatlari samarali ijrosini ta'minlashda oldindan belgilangan tamoyillar asosida amalga oshiriladi (chizma). Bunday tamoyillar qatoriga budjet mablag'larini maqsadli taqsimlash, ulardan eng yuqori samara olinishiga erishiladigan holda foydalanish, tejamkorlik rejimiga qat'iy amal qilish va budjet xarajatlarini ijrosini ta'minlashda budjet intizomiga rioya etilishini ta'minlash kabilar kirishi mumkin. Bu tamoyillarga so'zsiz amal qilish budjet mablag'laridan maqsadli, samarali va tejamlilik asosida foydalanishga katta imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunda mamlakatdagi mavjud ahvolni o'rganib chiqib, budjet xarajatlarini rejalashtirish va ijrosi jarayonidagi budjet intizomini buzilishining quyidagi xarakterli ko'rinishlarini keltirish mumkin:

- Budjetning ikkinchi darajali xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash oqibatida birinchi darajadagi tadbirlarga mablag' yo'naltirishni kechiktirish;
- Mahalliy hokimiyat organlari rahbarlarning tazyoiqi ostida budjet mablag'larini budjet parametrlarida ko'zda tutilmagan xarajatlarga yo'naltirish;
- Ish xaqi, xo'jalik xarajatlari bo'yicha belgilangan budjet limitlarini oshirib borish;
- Bdyudjet mablag'larini bir moddadan ikkinchi moddaga o'tkazish va ulardan noqonuniy tarzda foydalanish va h.k.

Budjet intizomiga rioya etish buzilishining eng ko'p tarqalgan xarakterli ko'rinishi – bu budjet mablag'larini mahalliy hokimliklarning farmoyishlari asosida adres dasturiga kiritilmagan qurilish va ta'mirlash ob'ektlariga, avtomobillar sotib olish, dabdabali tadbirlarni o'tkazishga yo'naltirishdir.

Budjet mablag'larining mahalliy budjetlar parametrlarida belgilanmagan xarajatlarga tarqatib yuborilishi, birinchi navbatda bo'lgan ish haqi, ijtimoiy nafaqalar, stipendiya to'lovlari, davolash va xalq maorifi muassasalariga dori-darmon, oziq-ovqat, yoqilg'i – energiya resurslarini etkazib berishda jiddiy salbiy holatlarga olib kelmoqda.

Ma'lumki, ko'p yillar davomida budjetning xarajatlar ijrosini amalga oshirishda hamda budjet mablag'larini nazorat qilishda bir talaygina muammolarga duch kelinishi budjet mablag'larini sarfi ustidan nazoratni to'liq amalga oshirilmayotganligi ko'zga tashlanar edi.

Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan moliya muassalari va budjet tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni bo'shashtirib yuborganligi oqibatida moliya organlari va budjet tashkilotlari rahbarlari birinchi darajali xarajatlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirish o'rniga mablag'larni budjet parametrlarida ko'rsatilmagan xarajatlarga yo'naltirish, budjet mablag'larini boshqa moddalarga sarflash holatlarini ko'rish mumkin edi. Bularning barchasi faqatgina budjet mablag'larini rejalashtirish jarayonida emas, balki ulardan foydalanish ya'ni ijrosi jarayonida ham budjet intizomiga rioya etishning buzilishiga xos bo'lgan qutsidagi xarakterli ko'rinishlarni keltirib chiqargan edi :

- birinchi darajali to'lovlarning (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, ijtimoiy nafaqalar va stipendiyalar) o'z vaqtida moliyalashtirilmasligi hamda naqd pul bilan ta'minlanmasligi, to'lov muddatlarining kechiktirilishi;

- budjet parametrlariga va xarajatlar smetalaridagi limitlariga amal qilmaslik natijasida ish haqi, kommunal xizmatlar va xo'jalik xarajatlaridan ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yish;

- budjet muassasalarining xarajatlar smetalarida ko'zda tutilmagan xarajatlarni amalga oshirish va budjet mablag'laridan samarasiz hamda boshqa maqsadlarda foydalanish;

- budget muassasalarining rahbarlari tomonidan shtat-smeta intizomiga rioya qilmaslik, ortiqcha shtat birliklaridan foydalanish, ish haqining belgilangan miqdorlarini oshirib yuborish, ishlamagan xodimlarga haq to'lash;

- o'z-o'zini boshqarish organlari (mahalla qo'mitalari) orqali aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'lanadigan ijtimoiy nafaqalarni tayinlashda turli mahalliychilik va qarindosh-urug'chilikka yo'l qo'yish hamda ularni to'lash paytida bank muassasalari xodimlari va o'z-o'zini boshqarish organlari xodimlari bilan birgalikda turli qonunbuzarliklarga va davlat mablag'larini o'zlashtirishga yo'l qo'yish;

- mahalliy hokimiyat organlari rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslarning budget jarayoniga asossiz aralashuvi natijasida budget mablag'larini budget parametrlarida ko'zda tutilmagan qurilish, ta'mirlash ishlarida avtomobillar va boshqa dabdabali jixozlar sotib olishga hamda turli tadbirlar o'tkazishga sarflash va h.k.

Budget tashkilotlari xarajatlari smetasi tasdiqlangandan so'ng kommunal xizmatlar, gaz va elektr energiya uchun shartnomalar tuzish, shartnomalarda ushbu xizmatlarga faqat belgilangan limitlar doirasida oyma-oy hisob-kitob qilinishi, limitdan ortiqcha summaga ko'rsatilgan xizmatga mablag' ajratilmasligi alohida belgilab o'tilganligiga qaramasdan ayrim hududlarda ushbu talablar to'liq bajarilmasligi oqibatida kreditorlik qarzlari yo'l qo'yilgan. Bu jarayonda limit intizomi, tariflar va haqiqiy ehtiyojlarni inbotga olinishi ta'minlanmagan.

Oziq – ovqat va dori – darmonlardan kreditorlik qarzlari kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri vositachi tashkilotlar orqali mahsulotlar olishdir. Bunda oziq – ovqat mahsulotlari va dori-darmonlarni sotib olishda vositachi tashkilotlar tomonidan usatamalarni ko'p qo'yilishi o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatni rivojlantirish sharoitida davlatning moliyaviy resurslarni boshqarishi ahamiyati beqiyos hisoblanadi, shu sababli respublikamizda Davlat budjeti ijrosini amalga

oshirishda g'aznachilik tizimiga o'tish zaruriyati paydo bo'ldi. Sababi, yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarning echimini xal etish uchun budget tizimida budget xarajatlari samarali ijrosini ta'minlovchi muhim bo'g'in budget amaliyotga g'aznachilik tizimi joriy etildi.

G'aznachilik tizimining faoliyati nafaqat davlat moliyaviy resurslarini safarbar qilish orqali davlat xarajatlarini muntazam boshqarish imkoniyatini yaratadi, balki ular ustidan samarali nazorat qilish imkonini ham beradi.

Boshqacha qilib aytganda, rivojlangan moliya tizimini shakllantirishda davlat moliyaviy resurslarini malakali boshqarish va budgetni to'xtovsiz ijro etish hamda budget mablag'larini oluvchilar tomonidan mablag'larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilishni ta'minlaydi. Oxirgi yillarda ko'pchilik mamlakatlarda g'aznachilik organlari o'zlarining turli darajadagi budgetlar ijro-sini ta'minlash kabi asosiy funksiyalaridan tashqari, umuman davlat moliya tizimida faolroq rol o'ynamoqda. Ular iqtisodiyot va davlat moliyasi sohasida universal vazifalarga ega o'ziga xos davlat moliyaviy organlariga aylanib bormoqda.

Masalan, g'aznalar vaqtinchalik erkin budget mablag'lariga ega bo'lgani uchun banklararo kreditlar bozori hamda korxonalar va tashkilotlar uchun kredit resurslari sifatida ishlatilmoqda. «Hisobraqamlardagi kassa qoldiqlarini ishlatib, g'aznalar vaqtinchalik erkin budget mablag'larini depozitlar yoki qimmatli qog'ozlarga joylab, shu yo'l bilan budget uchun qo'shimcha daromadlar jalb qilish uchun kapitallar bozorida qarz oluvchi yoki qarz beruvchi sifatida ishtirok etmoqda»¹.

G'aznachilikni joriy etish budget daromadlarining to'liq va o'z vaqtida tushishini va xarajatlar qismida budget mablag'lari-ning maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Mazkur tizimni joriy etish bilan budget bajarilishini kuzatish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratish, budget mablag'larini maqsadsiz

¹ Bezdenejnix A.V. Institut kaznacheystva kak instrument gosudarstvennogo vliyaniya na ekonomiku gosudarstva. Finansi. 2003. №2. –str. 25.

sarflanishdan himoyalash va budjetni rivojlantirish va prognozlashtirish sifatini oshirish mumkin.

Davlat budjetining G'aznachilik tizimi joriy etilishi quyidagi ijobiy natijalarga erishishga imkoniyat beradi:

- davlat moliyaviy resurslarining real hajmini va uning is-tiqbol ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish;
- davlat moliyasining holati to'g'risidagi tezkor va muntazam ravishda axborotlarni yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish;
- davlat budjetining daromad va xarajat qismlarini kassa ijrosini har kungi aniqlashtirilgan monitoringini o'tkazish;
- tasdiqlangan budjet mablag'lari doirasida budjet tashkilot-larining tovarlar va xizmatlar etkazib beruvchilar oldidagi maj-buriyatlarini qabul qilish bosqichida dastlabki nazoratni amalga oshirish;
- moliya organlari tomonidan budjet xarajatlarini o'z vaq-tida va adresli moliyalashtirish bilan budjet mablag'larini bosh taqsimlovchilari tomonidan sui'ste'mol qilish va noto'g'ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat olib borish;
- budjet tashkilotlari majburiyatlarni olgandan keyin pul mablag'larini G'aznachilik hisob raqamidan to'g'ridan-to'g'ri tovar etkazib beruvchilar hisob raqamiga o'tkazish orqali pul oqimlari harakatini tezlashtirish o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish or-qali ta'minotchilarni moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash;
- G'aznachilik tizimining bir pog'onasidan ikkinchi pog'onasiga pul mablag'lari o'tkazishni tezlashtirish orqali budjet mablag'la-rini tezkor harakat qilinishini ta'minlash.

Davlat budjetining G'azna ijrosidan foydalanish - budjet mablag'larini maqsadli va samarali ishlatishga hamda kreditor to'lov intizomini mustahkamlashga va natijada debitor va kreditor qarzdor-liklarni keskin qisqartirish, Davlat budjeti ijrosi jarayonini jahon andozalariga javob beradigan yangi sifat pog'onasiga chiqarishdir.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, mazkur tizimni joriy etish bilan budget bajarilishini kuzatish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratish, budget mablag'larini maqsadsiz sarflanishidan himoyalash va budgetni rejalashtirish va prognozlashtirish sifatini oshirish mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatni rivojlantirish sharoitida davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish ahamiyati beqiyos hisoblanadi, shu sababli, respublikamizda Davlat budjeti ijrosini amalga oshirishda g'aznachilik tizimiga o'tish zaruriyati paydo bo'ldi. Sababi, yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarning yechimini hal etish uchun budget tizimida budget xarajatlari samarali ijrosini ta'minlovchi muhim bo'g'in budget amaliyotiga g'aznachilik tizimi joriy etildi.

3.2 Davlat budjeti xarajatlarini samarali ijrosini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari.

O'zbekiston sharoitida davlat moliyasini boshqarish tizimidagi islohotlarning eng asosiysi g'aznachilik tizimini to'liq joriy qilishdir. Davlat budjeti ijrosida foydalanilayotgan g'aznachilik tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga mos holda davlat xarajatlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar yig'indisidan iborat. Bu chora-tadbirlar Davlat budjetining xarajatlari ijrosidagi davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini hamda joriy va dastlabki nazorat samaradorligi bo'yicha dolzarb masalalarni qamrab oladi.

Budget mablag'laridan maqsadli foydalanish va xarajatlarini samarali ijrosini ta'minlash ustidan nazoratni kuchaytirish uch bosqichli nazoratni to'liq joriy qilishni taqozo etadi.

Ya'ni, budget tashkiloti kontragentdan tovarlar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida ofertani (taklifni) qabul qilib olganidan so'ng, shartnomani aktseptlaydi (imzolaydi) va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi.

Yuridik majburiyat vujudga kelishi uchun, shartnomaning ro'yxatdano'tkazilishi talab qilinadi. G'aznachilikda yuridik majburiyat vujudga kelishidan avval, dastlabki nazoratni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu narxlar monitoringi orqali ta'minlanadi, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan baholar monitoringini amalga oshirish tartibi, oziq-ovqat mahsulotlari sohasi misolida ko'rib chiqiladi:

Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish jarayonlarida, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan baholar nazoratini tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tegishli buyruqlari asosida amalga oshiriladi.

Mahsulotlar(xizmatlar, ishlar)ni xarid etish bo'yicha shartnomalar tender yoki konkurs (tanlov) savdolari orqali amalga oshiriladi va bundan ko'zlangan asosiy maqsad optimal baholardan sifatli mahsulotlarni xarid etishdan iboratdir. Baholar optimalligi va budjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat etish, amalga oshiriladigan xaridning yuqori samarasini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Baholar monitoringi tizimidagi mavjud muammolar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- tovarlar va xizmatlar bahosi to'g'risida tizimlashgan tarzda axborot olishning etishmasligi (ayniqsa respublika hududlari bo'yicha);
- mavjud baholar monitoringi tovarlarning assortimenti (sifati, texnik va boshqa muhim tavsiflari)ni hisobga olmaydi;
- baholar monitoringi amalga oshirishda transport xarajatlarini hisobga olishni tartibga soluvchi mexanizm etishmaydi;
- ayrim oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan baholar, joylarda o'rnatiladigan baholar bilan keskin farqlanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda budjet jarayonida o'rta muddatli rejalashtirish mexanizmini joriy qilishga dastlabki urinishlar bo'layotganligini va budjet xarajatlarining natijaviyligini ta'minlovchi nazorat qilish mexanizmining endigina shakllanayotganligini e'tirof etish lozim.

Iqtisodiyotni markazdan turib boshqarish hukm surgan mamlakatlarda boshqa qator g'arb davlatlari kabi, budjetni tayyorlashda «xarajatli budjet» usulidan (zatratiy metod) foydalanib kelingan. «Xarajatlarga asoslangan budjetni tuzish» usuli resurslarni rejalashtirish va taqsimlashning shunday bir usulidirki, bunda resurslar va ularni sarflashdan erishiladigan natijaviylik juda kuchsiz bo'lib hisoblanadi, chunki xarajatlar usulida asosiy e'tibor mavjud resurslarga qaratiladi.

O'z navbatida, “natijaga qaratilgan budjetlashtirish” strategik maqsad va vazifalarni asosiy maqsad qilib o'z oldiga qo'yadi, davlat tashkilotlari faoliyatlari natijasidan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar kutadi. Bu esa barcha resurslarni ma'lum bir dasturlar orqali sarflanishi orqali amalga oshiriladi.

XULOSA

Bitiruv-malakaviy ishimizni tadqiq etish jarayonida biz quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchi- davlat budjeti xarajatlarini amalga oshirish da tarqoq xoldagi tijorat banklarida ochilgan xisob raqamdan, markazlashgan tartibda Markaziy bankda ochilgan yagona g'azna xisob rakamidan xarajatlarni amalga oshirish tashkil etildi.

Ikkinchi- amalda bulgan tasdiqlangan budjet xarajatlari miqdori va budjet tashkilotlarining smeta xarajatlari doirasida xarajatlarini moliyalashtirishdan budjet tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ruyxatga olish orqali , xar bir budjet tashkilotlari xarajatlarini mablag' bilan taminlash amaliyotiga utildi.

Uchinchi- Gaznachilik organlari budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar xarajatlari, tulovlarini amalga oshirish doirasida dastlabki va joriy nazoratni amalga oshirish imkoniga ega buldi. Bu uz navbatida mablag'larni ishlatilishini nazorat qilish imkonini berdi.

Turtinchi- budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar tovarlar (ish, xizmatlar) xarid qilishi buyicha malum urnatilgan narxlarini shakllantirish va shu asosda xarajatlarni amalga oshirish tartibi urnatildi. Natijada budjet mablag'larini suistemol qilinishini oldini olish imkoniyati yaratildi.

Beshinchi- davlat budjeti g'azna ijrosini taminlovchi tizimlashgan operativ organ faoliyatiga asos solindi. Bu esa muayyan vaqt xolatiga budjet xarajatlari ijrosi buyicha tezkor malumotlarni olish bo'sh turgan pul mablag'larini zaruriy xarajatlarni amalga oshirish uchun yunaltirish imkonini beradi.

Oltinchi- G'aznachilik sharoitida budjet xarajatlarini amalga oshirish orkali, budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning xarajatlari buyicha qarzlarni vujudga kelish darajasi pasaytirildi.

Ushbu xulosalarimizdan kelib chiqqan holda istiqbolda davlat budjeti xarajatlari ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik:

Birinchidan, Budget intizomini mustahkamlash maqsadida budget xarajatlaridan samarali va oqilona foydalanishning asosiy shartlaridan biri tejamkorlik rejimidagi xarajatlarni nazorat qilish normalariga qat'iy rioya qilishdir. Buning uchun budgetdan ijtimoiy ijtimoiy- madaniy tadbirlarni moliyalashtiriladigan mablag'lardan tashqari boshqa xarajatlarni bosqichma – bosqich kamaytirish va me'yordan ortiqcha amalga oshirilgan xarajatlarni budget hisobotlariga debitorlik va kreditorlik qarzlari sifatida qabul qilish amaliyotiga chek qo'yish zarur.

Ikkinchidan, Budgetdan mablag' oluvchi muassasalarning moddiy texnik bazasini inobatga olgan holda, byujetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlaridan amalga oshirilgan to'lovlar ko'chirmasini (vipiska) o'z muddatlarida hisobotlarda aks ettirilishini ta'minlash maqsadida, ushbu hujjatlarni tegishli operatsiyalar amalga oshirilgandan so'ng g'aznachilikda to'g'ridan-to'g'ri budget muassasasiga elektron tarzda yuborish va shu asosda budget muassasalari tomonidan hisobotlarni o'z vaqtida va sifatli tuzishga erishish maqsadga muvofiq bo'lardi

Uchinchidan, davlat budjetini shakllantirish va uning mablag'laridan foydalanish ustidan operativ nazoratni ta'minlash maqsadida o'z faoliyatlari bilan bog'liq munosabatlar doirasida budget tizimini boshqarish organlari doirasida integrallashgan axborot tizimlarini yaratish lozim .

Uylaymizki, yuqorida keltirilgan xulosalarimiz istiqbolda davlat budjeti xarajatlarini samarali ijro etishda o'z ijobiy natijalarini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2001.-39b.(o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)

2.“Budjeti tizimi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 14.12.2000y.(o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)

3. “Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida”»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 26.08.2004. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)

4.“O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi Prezident qarori. PQ-1449-son 24.12.2010.

5.“O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi Prezident qarori. PQ-1675-son 30.12.2011.

6.“O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi Prezident qarori. PQ-1887-son 25.12.2012.

7.“Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident I.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 30.01.2010.

8.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 28.01.2010.

9.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. - Prezident I.Karimovning

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 13.11.2010.

10. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. – Prezident I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 07.12.2010.

11. Prezident I. Karimovning BMT Sammiti Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so'zi // 21.09.2010

12. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A. Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

13. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Toshkent.: “O'zbekiston”. 2011 y.

14. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. -T.: O'zbekiston. 2012 y.

15. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini taminlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – “Xalq so'zi” gazetasi, 2012 yil 8 dekabr.

16. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamlı islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” – T.: O'zbekiston. 2013 y.

17. Karimov I.A. “Buyuk va muqaddassan, Mustaqil Vatan”. Ilmiy-ommabop risola. T.: “O'zbekiston” 2011 yil. 200 b.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

18. Azizova I.A. “Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish” T.: 2010 y. “infoCOM.UZ MChJ” nashriyoti 152 bet.

19. Burxonov U. Davlat xaridi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010 y. 160 bet

20. Vaxabov A.V., Srojiddinova Z.X. Gosudarstvenniy budjet: Uchebnik. T. "IQTISOD-MOLIYA", 2007 y. 454 str.
21. Malikov T.S., Haydarov N.X. Budjet daromadlari va xarajatlari. - Tashkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007 y. - 245 bet
22. Malikov T.S., Haydarov N.X. Davlat budjeti.- Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007y. - 84 bet
23. Qosimova G.A. Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta'minlash. O'quv qo'llanma. T.: "Fan va texnologiya" 2007 y. 275 bet.
24. Ходжаев Р., Эгамбердиев А., Исаев О. Государственный бюджет. Учебное пособие.- Т.: "IQTISOD- MOLIYA", 2008 г. 112 стр.
25. Vaxobov A. V., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008 y. 287 bet
26. Qosimova G. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2008 y. 272 bet
27. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Budjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma / T.: «infoCOM.UZ». 2009 y. 192 bet.
28. Haydarov M., A. Suvonqulov, B. Sugirbaev, B. Nurmatov. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010 y. 163 bet.
29. Z.Srojiddinova. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010y. 500 bet
30. Z.Srojiddinova. Budjetlararo munosabatlar. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010 y. 156 bet.
31. Qosimova G., Shaakramov K. Mahalliy budjetlar. O'quv qo'llanma. – T.: "Moliya", 2012. 260 b.
32. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2009 y. 120 bet.

33. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T.: "O'qituvchi" NMIU, 2012 y. 281 bet.

34. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T.: "O'qituvchi" NMIU, 2013 y. 373 bet.

35. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagamizning garovidir" risolasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2012, 79-b.

36. O'zbekiston Respublikasi Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. – 2011, 68-b.

37. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: "O'zbekiston", 2011, 3-4-b.

38. Афанасьев М.П. Бюджет и бюджетная система (изд:2), Юрайт, 2011г.. 782 стр.

39. Селезнев А.З. Бюджетная система Российской Федерации. Магистр. 2011г. 383 стр.

40. Нешитой А.С. Бюджетная система Российской Федерации (изд:10), Дашков и К. 2011 г. 336 стр.

41. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O’quv qo’llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2012 y. 207 bet

III. Davriy nashrlar, statistik to’plamlar va hisobotlar

42. O’zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi. – Toshkent, 2009-2012 y.y.

43. Финансы Узбекистана: статистический сборник – Ташкент, 2009-2012 й.й.

IV. Internet saytlari:

www.gov.uz-(O’zbekiston Respublikasi hukumati portali)

www.ziyonet.uz-(Axborot ta’lim tarmog’i)

www.lex.uz-(O’zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari milliy bazasi portali)

www.publicfinance.uz-(O’zbekiston Respublikasida budjet tizimini isloh qilish loyihasi portali)

www.stat.uz- (O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo’mitasi)